

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISH METODIKASI

**Axmadiyorova Muxayyo Zuxriddinovna**

“MERIT SCHOOL” XUSUSIY MAKTABI

E-mail: [usa190380@mail.ru](mailto:usa190380@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi hamda o‘quv jarayonida kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan ishlash jarayonlari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich, matematika, pedagogika, psixologiya, o‘qitish, metodika, ta’lim-tarbiya, nazariy, amaliy.

## METHODS OF TEACHING MATHEMATICS IN PRIMARY CLASSES

**Abstract:** This article provides information on the methodology of teaching mathematics in primary grades and the processes of working with young learners in the educational process.

**Key words:** primary, mathematics, pedagogy, psychology, teaching, methodology, education, theoretical, practical.

Matematika o‘qitish metodikasi, kichik yoshdagi o‘quvchilarni umumiy tizimda savodxonligini oshirish va tarbiyalash vazifasini qo‘yadi. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi matematikasining mazmuni va tizimlilikini aks ettiradi, har bir bo‘limini o‘qitishning o‘ziga xos xususiy metodlarini o‘rgatadi. Matematika o‘qitishning asoslangan metodlarini va hisoblash formalarini, shuningdek, o‘quv jarayonlarini tashkil qilish yo‘llarini ko‘rsatadi. Ta’lim-tarbiya o‘zaro mustahkam bog‘liqdir. Ushbu metodika ta’lim va tarbiyani qo‘shib olib borish yo‘llarini o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi bir necha fanlar bilan uzviy bog‘liqdir:

- 1) o‘qitish asosi bo‘lgan matematika bilan;
- 2) pedagogika;
- 3) psixologiya;
- 4) boshqa o‘qitish metodikalari bilan (ona tili, mehnat...).

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish kursi o‘quv predmetiga aylangan.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasining vazifalari:

- a) ta‘lim-tarbiya va amaliy vazifalarni amalga oshirishi;
- b) nazariy va amaliy bilimlar tizimini o‘rganish jarayonini ochib berishi;
- d) o‘quvchilarning fikrlashini shakllantirish yo‘llarini o‘rgatishi;
- e) ta‘limni insonparvarlik tamoyillarini;
- f) matematika o‘qitish jarayonida bolalarga mehnatni sevish, o‘zining qadriyatini, bir-biriga hurmati kabi fazilatlarini tarbiyalashni ko‘rsatib berishi.

Boshlang‘ich matematika kursining vazifasi maktab oldiga qo‘yilgan “o‘quvchilarga yangi texnologiyadan foydalanib puxta bilim berishda, ularga zamonaviy bilimlarni berish, kasb-hunarga qiziqtirish, kasblarni ongli tanlashga o‘rgatish” kabi vazifalarni hal qilishda yordam berishdan iborat. Shunday qilib, boshqa har qanday o‘quv fani kabi matematika boshlang‘ich kursi o‘qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o‘qitishning maqsadi;
2. Matematika o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi;
3. Matematika o‘qitishning amaliy maqsadi.

Matematika fani o‘z oldiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo‘yadi:

- a) yosh o‘quvchilarga ma‘lum dasturi asosida matematik bilimlar berish. Ularni matematika fanining yuqori bo‘limlarini o‘rganishga tayyorlashi kerak.

Bundan tashqari, dastur asosida o‘quvchilar o‘qitish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshirishga o‘rganishlari, nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari lozim;

b) yosh o‘quvchilarning og‘zaki va yozma matematik bilimlarini shakllantirish lozim bo‘ladi. Matematikani o‘rganish yosh o‘quvchilarning o‘z ona tillarida nutq madaniyatini to‘g‘ri shakllantirish, o‘z fikrini aniq, tushunarli va lo‘nda qilib bayon etishni o‘zlashtirishlariga yordam berishi kerak;

d) yosh o‘quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida haqiqatlarni bilishga o‘rgatish. Matematik bilimlar berish orqali esa o‘quvchilarning tasavvur qilish xususiyatlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari rivojlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish o‘z oldiga quyidagi tarbiyaviy vazifalarni qo‘yadi:

a) yosh o‘quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish;

b) yosh o‘quvchilarda matematikani o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarni uyg‘otish.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifasi yosh o‘quvchilarda mustaqil mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan ularda matematikaning qonuniyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otishdan iborat;

d) yosh o‘quvchilarda matematik tafakkurni va matematik madaniyatni shakllantirish. Matematika darslarida yosh o‘quvchilarga o‘rganiladigan matematik amallar belgilari va ular orasidagi qonuniyatlarni atroflicha fikrlashga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish o‘z oldiga quyidagi amaliy vazifalarni qo‘yadi:

a) yosh o‘quvchilar matematika darsida olgan bilimlarini kundalik hayotga tadbiq qila olishga o‘rgatish, o‘quvchilarda matematik amallarni bajarish va ularni mustahkamlash uchun tuzilgan masalalarni hal qilishga o‘rgatish;

b) matematika o‘qitishda multimedia va ko‘rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda asosiy e‘tibor yosh o‘quvchilarning jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalarini shakllantirishga qaratilgan;

d) o‘quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o‘rgatish.

## XULOSA

Yosh o‘quvchilar, mustaqil ravishda matematik misol va masalalarni yechishlari, tushunchalarni umumlashtirishlari, shunidek og‘zaki va yozma xulosalar qilishga o‘rganishlari kerak.

Bu o‘quvchilardan og‘zaki so‘rash; nazorat ishlari va mustaqil ishlar; uy vazifalarini tekshirish, testlar o‘tkazish kabi usullardir. Boshlang‘ich sinf matematika o‘qitish metodikasida nazorat ishlari, o‘quvchilardan yakka (individual) yozma so‘rov o‘tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba’zi didaktik materiallar dastumning chegaralangan doiradagi masalalarining o‘zlashtirilishini nazorat qilish uchun, boshlang‘ich sinf matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan. Matematika o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish va matematikaga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish omillaridan biri – yosh o‘quvchilar bilan olib boriladigan mustaqil ishlardir. Matematika darslarida mustaqil ishlar yangi materialni o‘rganishga tayyorgarlik ko‘rishda, yangi tushunchalar bilan tanishishda, bilimlarni nazorat qilishda amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning tashkiliy shakllari o‘quv jarayoni, uy vazifalarini mustaqil bajarish, o‘quvchilarning yakka tartibda va jamoa bo‘lib ishlashlari, ekskursiyalar, sinfdan tashqari mustaqil ishlar va to‘garaklardan iborat.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. M.E. Jumayev, Z.O‘.Tadjiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T., «Fan va texnologiya», 2005. 312 bet.
2. M.E. Jumayev. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T., «ILIM ZIYO», 2005. 224 bet.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)